

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MODAL SO'ZLARNING IZOHLI LUG'ATLARDA BERILISHI: MUAMMO VA TAHLIL

Mustafayeva Maftuna Bohodir qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Elektron pochta: maftunamustafayeva993@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16735090>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida modal so'zlarning izohli lug'atlardagi aks etishi, ularni tavsiflashdagi muammolar va lug'atchilikdagi metodik farqlar tahlil qilinadi. O'zbek tilidagi izohli lug'atlarning uch nashri (1981, 2008, 2022) asosida statistik tahlil o'tkazilib, modal so'zlar pometalari, misollar bilan berilishi, semantik aniqlik darajasi o'rganiladi. Ingliz tilidagi "Macmillan" va "Oxford" lug'atlarida modal so'zlarning ifodalanishi esa taqqoslash orqali ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, o'zbek tilidagi izohli lug'atlarni zamonaviy metodlarga tayangan holda mukammallashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: modal so'zlar, izohli lug'at, leksikografiya, Macmillan, O'zbek tili

Annotation: This article examines the representation of modal words in English and Uzbek explanatory dictionaries, focusing on the structural differences, semantic inconsistencies, and descriptive shortcomings found in both languages. The study conducts a comparative and statistical analysis of three editions of the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language (1981, 2008, 2022), highlighting how modal words are labeled, defined, and exemplified. Additionally, modal verbs in English dictionaries such as *Macmillan English Dictionary for Advanced Learners* and *Oxford Learner's Dictionary* are analyzed in terms of their formatting, clarity, and user-friendliness. The research reveals gaps in the Uzbek lexicographic tradition and emphasizes the need for systematic and modernized approaches to presenting modal expressions, taking into account international best practices.


Keywords: modal words, explanatory dictionary, lexicography, Macmillan, Uzbek language

Аннотация: В данной статье рассматривается представление модальных слов в толковых словарях английского и узбекского языков, а также проблемы их описания и методические различия в лексикографическом подходе. На основе трёх изданий «Толкового словаря узбекского языка» (1981, 2008, 2022 гг.) проведён статистический и сравнительный анализ: изучены пометы, наличие примеров и степень

семантической точности. Также рассмотрено, как модальные слова представлены в английских словарях, таких как *Macmillan* и *Oxford*, с точки зрения их структуры, полноты и удобства для пользователя. По результатам исследования обоснована необходимость усовершенствования узбекской лексикографии с учётом современных международных стандартов.

Ключевые слова: модальные слова, толковый словарь, лексикография, Макмиллан, узбекский язык

Ingliz tilidagi izohli lug'atlar tuzilishi va ishlash algoritmi o'tgan asrlardan to hozirgi kungacha bosqichma-bosqich yangilanib, zamon talablari va texnologik taraqqiyotga mos ravishda rivojlanib bordi. Dastlab oddiy bosma shakldagi lug'atlar faqatgina matnga asoslangan izohlarni taqdim etgan bo'lsa, bugungi kunda ularning elektron versiyalari ovozli, rasmi va interaktiv formatlarda foydalanuvchilarga yetkazilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi platformalar tomonidan yaratilgan izohli lug'atlar turli internet bazalaridan real vaqt rejimida to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, so'zlarning izohlarini yanada aniqroq, kontekstga yo'naltirilgan va ko'p funksiyali shaklda taqdim eta boshladi. Bu esa nafaqat til o'rganuvchilar, balki tarjimonlar va tadqiqotchilar uchun ham katta metodik yordam bo'lib xizmat qilmoqda. Mashhur rus leksikografi V.Dubichinskiy: "Lug'at – milliy madaniyat mahsuli va fenomenidir", – deb aytgan edi [1]. So'nggi yillarda leksikografik faoliyatda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi kengaymoqda. Lug'atlar tilning asosiy manbasi sifatida nafaqat lingvistik balki madaniy ma'lumotlar hamda pragmatik ko'rsatkichlarni ham qamrab oladi. Modal so'zlar ifoda etayotgan emotsional va mantiqiy baholar ularning izohli lug'atlardagi yoritilishini dolzarb qiladi. Ingliz tilida modal birliklarning izohi ko'pincha grammatik, fonetik, stilistik va semantik aspektlar bilan to'ldiriladi. O'zbek tilida esa ularning tavsifi ayrim hollarda umumiy, kontekstsiz yoki to'liq bo'lmagan tarzda beriladi. Leksikografik tafovutlar foydalanuvchi uchun noaniqliklar tug'diradi va tarjima, talqin, o'qitish jarayonlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi modal so'zlarning izohli lug'atlarda qanday yoritilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot ushbu lug'atlar tuzilmasi, metodikasi va semantik aniqligini o'rganishga yo'naltirilgan. Modal birliklarning ifodalanishi har bir til leksikasining pragmatik va ijtimoiy funksiyalarini ham aks ettiradi. Mazkur maqola natijalari lug'at tuzuvchilar uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.



Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida modal so'zlarning izohli lug'atlarda berilishi holati qiyosiy-lisoniy yondashuv asosida o'rganildi. Tahlil davomida sinxron va diakron metodlardan foydalanildi, ya'ni har ikki til lug'atlarining turli davrlardagi nashrlari solishtirildi. O'zbek tilining izohli lug'atlarining 1981, 2008 va 2022-yilgi nashrlari asosiy tadqiqot materiali sifatida tanlab olindi. Ushbu nashrlar tarkibida modal birliklarning mavjudligi, ularning pometalangan holati, izohlarining aniqligi va misollarning kontekstual qiymati tahlil qilindi. Ingliz tilidagi "Macmillan English Dictionary for Advanced Learners" hamda "Oxford Learner's Dictionary" lug'atlari esa xorijiy tajribani baholash mezon sifatida tanlandi. Modal birliklarning berilishi, ularning semantik tavsifi, grammatik ko'rsatkichlari, fonetik shakllari va stilistik belgilari sinchiklab o'rganildi. Statistik yondashuv asosida lug'atlardagi modal birliklarning son jihatidan ko'rsatkichi chiqarildi va o'zgarish dinamikasi aniqlashtirildi. Shuningdek, modallik ifodalovchi birliklarning sinonimik, funksional va stilistik tahlili ham amalga oshirildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv tamoyillari asosida lug'atchilikning nazariy va amaliy jihatlari uyg'unlashtirildi. Natijalar umumlashtirilgan holda, o'zbek va ingliz tillaridagi lug'atlar orasidagi strukturaviy va metodik tafovutlarni aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilining izohli lug'atlarida modal so'zlarning berilishi tizimli bo'lishiga qaramay, ularning semantik aniqligi va pometalanishida barqarorlik yetishmaydi. Xususan, 1981-yilgi ikki jildlik nashrda 18 ta modal birlik aniqlangan bo'lsa [2], 2008-yilgi besh jildlik nashrda bu ko'rsatkich 29 taga [3], 2022-yilgi oltita jildli nashrda esa 31 taga yetgani qayd etildi [4]. Bu esa vaqt o'tishi bilan izohli lug'atlarda modal birliklarni qayd etish darajasining oshganligini ko'rsatadi. Biroq ayrim modal so'zlar faqatgina izoh matnida berilib, leksik pometa orqali ajratilmagan, bu esa foydalanuvchida semantik noaniqlik uyg'otadi. Ingliz tilidagi "Macmillan" lug'atida esa modal fe'llar alohida [modal verb] belgisi bilan ko'rsatilgan bo'lib, har bir birlik uchun kontekstual misollar, grammatik shakllar va qo'llanish chastotasi asosida izohlar taqdim etilgan [5]. Ayniqsa, "can" modal fe'lining berilishi misolida leksikografik tizimlashtirish darajasi yuqori ekanligi kuzatildi. "Oxford Learner's Dictionary" lug'atida esa modal birliklar grammatik guruh doirasida joylashtirilgan bo'lsa-da, ularning stilistik va semantik xususiyatlari kontekst asosida yoritilgan. Qiyosiy natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz lug'atlarida modal birliklarning qo'llanish doirasi va grammatik imkoniyatlari kengroq yoritilgan. B.Bahriddinovaning tadqiqotlarida o'quv lug'atlarining mohiyati, ularning tuzilish tamoyillari va boshqa lug'at turlaridan farqlovchi jihatlari atroflicha

yoritiladi. Muallifa ko'ra, o'quv lug'atlari nafaqat til o'rgatuvchi vosita, balki didaktik-maqсадli leksikografik manba sifatida shakllanadi. U bunday lug'atlarni yaratishda asosiy mezon sifatida foydalanuvchining bilim darajasi, yosh xususiyatlari va kommunikativ ehtiyojlarini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda, shuningdek, rivojlangan davlatlarning o'quv leksikografiyasi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega ekani, bu soha bosqichma-bosqich shakllanganligi qayd etiladi. Bahriddinovaning fikricha, aynan shu jarayonda leksikograflar o'quvchilar ehtiyojiga yo'naltirilgan, antropotsentrik yondashuv asosidagi yangi tipdagi lug'atlar ustida ishlamoqda. Bu esa o'quv leksikografiyasining zamonaviy janrlarini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Muallif o'z kuzatuv va tahlillari orqali o'quv lug'atlari uchun konseptual asoslar ishlab chiqishni taklif qiladi [6]. O'zbek tilidagi lug'atlarda esa ayrim modal birliklar (masalan, "xayr", "nasib bo'lsa") izohlangan bo'lsa-da, ular umumlashtirilmagan va ko'p hollarda sinonimik qiyos asosida tahlil qilinmagan. Umuman olganda, izohli lug'atlardagi natijalar til birliklarining leksik-semantik tizimi va zamonaviy talablar bilan uzviy bog'liqligini taqozo etadi.

Muhokama. O'zbek va ingliz tillaridagi izohli lug'atlarni qiyosiy tahlil qilish, modallikni ifodalovchi birliklarning lug'atchilikda qay darajada va qanday mezonlar asosida tasvirlanishini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi lug'atlarda modal birliklarning belgilanishi va izohlanishida bir xillik yetishmasligi, ayrim hollarda esa semantik noaniqliklar mavjudligi kuzatildi. Modal so'zlar pometasiz berilganda ularning grammatik vazifasi va semantik yuki foydalanuvchi tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Ingliz lug'atlarida esa har bir modal fe'lga alohida grammatik va stilistik sharhlar, qo'llanish chastotasi, misollar va hatto fonetik transkripsiyalar bilan boyitilgan izohlar keltirilgan. Bu esa lug'atning nafaqat axborot manbai, balki o'quv vositasi sifatidagi funksiyasini kuchaytiradi. Ayniqsa, "Macmillan" lug'atida modal birliklarning vizual belgilar bilan ko'rsatilganligi, ularning semantik holatlarda qanday qo'llanishi aniq ajratib berilgani o'zbek lug'atchiligi uchun ibratli metodik yechim bo'la oladi. O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda esa darsliklarda mavjud bo'lgan sof va vazifadosh modal birliklar orasidagi tafovutlar amalda qo'llanilmagan. Bu esa foydalanuvchining lingvistik kompetensiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, sinonimik modal birliklar o'zaro bog'liq tarzda berilmagani ham izohli lug'atning amaliy qamrovini cheklaydi. Xulosa qilib aytganda, modallik kategoriyasini izohli lug'atlarda ifodalashda metodik

yondashuv, stilistik tafsilotlar va semantik qatlamlar uyg'unligiga ehtiyoj mavjud.

Xulosa. O'rganilgan materiallar asosida aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi izohli lug'atlar orasida modal birliklarni berish tamoyillarida muhim tafovutlar mavjud. Ingliz leksikografiyasida modallik qatlamlari tizimli, kontekstual va ko'p qirrali tarzda izohlangan bo'lsa, o'zbek lug'atlarida bu jarayon ko'proq umumiy semantik yondashuv bilan cheklangan. Modal birliklar foydalanuvchining tilni to'g'ri anglashida muhim vosita bo'lganligi uchun ularni zamonaviy lug'atlarda keng qamrovda ifodalash zarur. O'zbek lug'atchiligida modal so'zlarga oid birliklar alohida pometalor, kontekstual misollar, va sinonimik bog'liqlik asosida takomillashtirilishi lozim. Shuningdek, xorijiy leksikografik tajribalarni o'rganish orqali milliy lug'atlarni yangi metodologik yondashuvlar asosida boyitish mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari lug'atchilik amaliyotiga ilmiy asoslangan takliflar kiritish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. Вена: Харьков, 1998. – 160 с.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. Toshkent: Fan, 1981.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" DK, 2008.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. Toshkent: 2022.
5. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Macmillan Publishers, 2007.
6. Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Самарқанд: СамДУ, 2020. – 248 б.

